

**ANTONIMLARNING SO'Z TURKUMLARIDA IFODLANISHI**

Narbayeva Xosiyat

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy
tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11193124>

ARTICLE INFO

Received: 9th April 2024

Accepted: 11th May 2024

Published: 14th May 2024

KEYWORDS

*Antonim, ot, sifat, fe'l, ravish,
tilshunoslik.*

ABSTRACT

Bu maqolada antonimlar haqida ma'lumot berildi. Ot, sifat, fe'l, ravish so'z turkumlariga kiruvchi antonimlarga misollar keltirildi

Bugungi kunda o'zbek tilini rivojlantirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Darslikdagi o'zgarishlar o'quvchilarning fukrlash qobiliyatlarini hamda bilim salohiyatini oshirish uchun xizmat qilmoqda. Har bir til o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. O'zbek tili antonimlarga ham sinonimlarga ham omonimlarga ham boy til hisoblanadi. Alisher Navoiy bobomiz tilimizning boyligini isbotlab berish uchun o'zining shoh asari bo'lmish "Xamsa" asrini turkiy tilda bitadi. Bugungi kunda tilimizning lug'at boyligi zamon va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida boyib bormoqda. Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari bo'yicha munozarali qarashlar ham bor. Xususan, ayrim manbalarda *opa* va *singil*, *aka* va *uka*, *tog'a* va *xola* kabi so'zlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan B.Isabekov esa ularni antonimlar emas, korrelativ so'zlar deb baholaydi, buni yuqoridagi leksemalarning ma'nolari qarama-qarshi emas, balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi.¹ Shu bilan birgalikda ota-ona so'zlari ham bir-biriga yaqin. Antonimlar bir-biriga qarama-qarshi zid ma'noli so'zlar hisoblanadi.

Antonim atamasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, u «qarama-qarshi nom», «zid nom» degan ma'nolarni bildirai. Demak, antonimlar tillardagi qarama qarshi ma'noni anglatuvchi so'zlardir. Dunyoda hamma narsa juftlik prinsipiga asoslanganligi ma'lum. Juftlik borligi uchun dunyoda taraqqiyot bor. Lekin har qanday juftlik ham taraqqiyot, rivojlanishning asosi bo'la olmaydi. Faqat bir-birini bir vaqtning o'zida ham inkor qiladigan, ham taqozo qiladigan juftlikkina rivojlanish va muvozanat asosi bo'la oladi. Antonim so'zlar tilni leksik yarusidagi ana shunday juftlikning oddiy namunasidir. Masalan, *katta-kichik*, *to'g'ri-egri*, *keng-tor*, *oq-qora* va

¹ H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – "Talqin" - 2005

boshqalar.² So'zlar harakat va holatning atalish jihatlari, rang, xil-xususiyyat bildirishi orasida ziddlik munosabati bo'ladi.

Antonimlar deyarli barcha so'z turkumlarida mavjud. Masalan ot so'z turkumlariga oid antonimlar: kambag'allik – boylik, azob – rohat, baxt – baxtsizlik kabi. Xotinimni ham *kambag'allik* yiqitdi, bu yerdagi og'ir ish nobud qildi. Sepning *boyligi*, turi, rang-baragligi hammani hang-mang etdi. Yuragidagi bor dardlarini, tortgan *azoblarini* bir-bir aytib berdi. Sulton Hasanbek va Mirzabek Hirotda *rohat-farog'atda* umr kechirib, o'z ajallari bilan o'ldilar. *Baxt* insonning sog'ligida. Anvarning bu holati balki oila *baxtsizligidan*, ota-ona bag'rida yayramaganligidan tug'lgandir.

Fe'l so'z turkumiga oid antonimlarga ayirdi-birlashtirdi, e'zozladi-xo'rladi, fosh qildi-yashirdi, boshladi-bitirdi kabi fe'llarni misol qilishimiz mumkin. Salim qamoqqa ketdi, bolasini esa onasidan *ayirdilar*. Zulm xo'rlanganlarni *birlashtirdi*. Nurbek hamisha ot-onasini *e'zozlagan*. Ota-onasini xo'rlaganlarning o'zlari *xo'rlandi*. Nasim do'stining brcha kirdikorlarini *fosh qildi*. Nozima qilgan barcha qilmishlarini *yashirdi*. Said Ahmad yangi asar yozishni *boshladi*. Nodirbek hikoyasini yozib *bitirdi*.

Ravish so'z turkumiga avval-keyin, asta-sekin, ertaga-kecha kabi ravishlarni misol qilishimiz mumkin. Tirikchiligimiz *avval* qanday bo'lsa, hozir ham shunday. Boyvachchaning kimligini *keyin* aytaman. Bugungi ishni *ertaga* qo'yma. *Kecha* borib, hamma narsani olib keldik.

Sifat so'z turkumiga oid antroponimlarga foydali-zararli, beqaror-barqaror, berk-ochiq, dangasa- mehnatsevar kabi. Bu bergan dorilarimizning barchasi siz uchun *foydali*. Kechagi hamma dorilar inson uchun *zararli* edi. Zarafshon vodiysining ob-havosi juda *beqaror*, bir kunda yuz marta o'zgaradi. Hosilning *barqaror* bo'lishi uchun mehnat qilish kerak. Sening ukang juda *dangasa* ekan. Nodirbek juda chaqqon va *mehnatsevar*. Chiroyli qizlarning hammasi xon saroyida to'plangan edi. Xunuk qizlar davraga qo'shilmadi.

Har bir tilni o'rganishni istagan odam eng avvalo, o'sha tilning grammatikasini o'rganishi lozim bo'ladi. Antonimlar asosida she'riy san'at turi bo'lmish tazod san'ati ham adabiyotimizda ko'plab namunalar yaratilgan. Shuni aytish kerakki, fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari antonimlarga misol bo'la olmaydi. Chunki ular harakatning bajarilganligi yoki bajarilmaganligini bildiradi xolos. Antonimlar olmosh va son so'z turkumlarida uchramaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006
2. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abdusalova Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – 2009.
3. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – “Talqin” – 2005
4. M. T. Irsqulov Tilshunoslikka kirish Toshkent - 2009

² M. T. Irsqulov Tilshunoslikka kirish Toshkent - 2009